Mahalliy 11:04, 04.12.2019 104146

O‘zbekiston bir asr avvalgi rangli suratlarda (foto+video)

“Sof.uz” fotosuratchi Sergey Mixaylovich Prokudin-Gorskiyning bir asr avval O‘zbekiston hamda qisman Turkmaniston va



Qirg‘izistonning yuz yil avvalgi holatini ko‘rsatuvchi suratlari jamlanmasini taqdim etdi.

Registon maydoni yuz yil burun shunday edi.

Foto: Sergey Mixaylovich Prokudin-Gorskiy



Suratlarning mavzusi xilma-xil – Buxoroning mashhur va so‘nggi amiri Sayid Olimxondan tortib uning zindonida yotgan zanjirlangan mahbuslargacha, dashtdagi ko‘chmanchilardan shahardagi savdogar-u tilanchilargacha tasvirlangan.

Foto: Sergey Mixaylovich Prokudin-Gorskiy

1863-yil Rossiyaning Vladimir guberniyasida tug‘ilgan Sergey Mixaylovich Prokudin-Gorskiy fotosuratchi, kimyogar, kashfiyotchi va noshir edi. U dunyoda birinchilardan bo‘lib rangli surat olishni yo‘lga qo‘ygan. 1917-yil inqilobidan keyin Fransiyaga muhojirlikka ketgan va 1944-yil o‘sha yerda vafot etgan Prokudin-Gorskiyning arxivida 4 000 dan oshiq turli mavzulardagi suratlar bo‘lgan. Afsuski, bugungi kungacha bu suratlardan 2 000 ga yaqinigina yetib kelgan va hozirda AQSh Kongress kutubxonasida saqlanadi.

Prokudin-Gorskiyning asosiy fotosuratlari Rossiyadagi o‘sha davr hayotini aks ettirgan. Shu bilan birga u 1904—1916-yillar davomida Rossiya imperiyasi tarkibiga kiruvchi hozirgi Ukraina, Belarus, Gruziya, O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Latviya, Finlandiyada, shuningdek, imperiya chegaralaridan tashqaridagi Fransiya, Turkiya, Shveysariya, Germaniya, Daniya, Italiya va Avstriya kabi mamlakatlarda bo‘lib, u yerlarda o‘zi muhim sanagan shaxslar, joylar suratlarini tarixga muhrlagan.



Prokudin-Gorskiy olgan fotolar Chor Rossiyasi podshosi Nikolay II qo‘l ostidagi yerlar haqidagi loyihaning bir qismi bo‘lgan. Prokudin-Gorskiy Rossiya podshosiga tegishli bepoyon hududlarning rangli panoramasini tuzishni istagan.



Buxoro zindoni

Foto: Sergey Mixaylovich Prokudin-Gorskiy

Samarqanddagi madarasa talabalari

Foto: Sergey Mixaylovich Prokudin-Gorskiy



Registon maydonidagi savdogarlar

Foto: Sergey Mixaylovich Prokudin-Gorskiy



Mirzacho‘l dashtidagi qirg‘iz ko‘chmanchilar

Foto: Sergey Mixaylovich Prokudin-Gorskiy



Buxoroning so‘nggi amiri Said Mir Muhammad Olimxon

Foto: Sergey Mixaylovich Prokudin-Gorskiy



Samarqandlik qariya qo‘lida ovlagan qushi bilan

Foto: Sergey Mixaylovich Prokudin-Gorskiy



Hozirda Qirg‘izistonning Botken viloyati hududida joylashgan qadimiy Sulukta ko‘mir konida

Foto: Sergey Mixaylovich Prokudin-Gorskiy



Buxorolik amaldor amirning Sherbudun qasri hovlisida

Foto: Sergey Mixaylovich Prokudin-Gorskiy



Xivani amalda o‘zi boshqargan so‘nggi xon Isfandiyor. Undan keyingi xon Said Abdulla taka-yovmitlar sardori Junaidxon qo‘lida “qo‘g‘irchoq” bo‘lgan.

Foto: Sergey Mixaylovich Prokudin-Gorskiy



Buxorodagi nonvoylar.
Foto: Sergey Mixaylovich Prokudin-Gorskiy

Taka-yovmit qabilasiga mansub oila.
Bayramali shahri, hozirgi Turkmaniston

Foto: Sergey Mixaylovich Prokudin-Gorskiy

